

## OSSURIYA HUDUDIDA YASHAGAN ENG QADIMGI QABILALAR

Ziyotov Zayniddin Abdusattor o'g'li

MIRZO ULUG'BEK nomidagi

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Tarix fakulteti Tarix(mamlakatlar va yo'nalishlar)

2-kurs talabasi

E-mail: zayniddinziyotov@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ossuriya hududida yashagan eng qadimgi qabilalar haqida ma'lumotlar taqdim etiladi. Maqolada bu qabilalarning kelib chiqishi, yashash tarzi, ijtimoiy tuzilish va madaniyati haqida tarixiy faktlar, arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar asosida Ossuriya sivilizatsiyasiga ta'siri yoritiladi. Maqolada qadimgi qabilalarning iqtisodiy faoliyati, diniy e'tiqodlari va qo'shni xalqlar bilan aloqalari ham tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot Ossuriya hududida yashagan qabilalar haqida kerakli ma'lumotlarni aniqlash va ular asosida tahlil o'tkazishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Subarey, Mari, ittifoq, soliq, ibodatxona, Nippur, Dajla, Akkad, Shumer, Ossur qonunlari, kutubxona, Urkish, Navar, Samarra, Kikiya, g'ujanak, qabr, semit, Amorit, mixxat, Tel-Billa.

**Аннотация:** В статье представлена информация о древнейших племенах, проживавших на территории Ассирии. В статье на основе исторических фактов, археологических находок и исторических источников рассматриваются происхождение, образ жизни, социальная структура и культура этих племен, а также их влияние на ассирийскую цивилизацию. В статье также анализируется хозяйственная деятельность древних племен, их религиозные верования, а также их отношения с соседними народами. Данное исследование поможет выявить и проанализировать необходимую информацию о племенах, проживавших на территории Ассирии.

**Ключевые слова:** Субарей, Мари, союз, налог, храм, Ниппур, Тигр, Аккад, Шумер, ассирийские законы, библиотека, Уркиш, Навар, Самарра, Сикия, гуджсанак, гробница, семит, аморрей, клинопись, Тель-Билла.

**Abstract:** This article provides information about the most ancient tribes that lived in Assyria. The article discusses the origin, lifestyle, social structure and culture of these tribes, based on historical facts, archaeological finds and historical sources, and their influence on the Assyrian civilization. The article also analyzes the economic activities of the ancient tribes, their religious beliefs and relations with neighboring peoples. This study will help to identify the necessary information about the tribes that lived in Assyria and conduct an analysis based on them.

**Keywords:** Subarei, Mari, union, tax, temple, Nippur, Tigris, Akkad, Sumer, Assyrian laws, library, Urkish, Nawar, Samarra, Sikia, Gujanak, tomb, Semite, Amorrean, cuneiform, Tell Billah.

Kirish: Qadimda Ossuriya hududida dastlab miloddan avvalgi IV-V ming yillikdan buyon subarey qabilalar yashagan: subarey qabilalari Old Osiyoning shimoliy qismida azaldan yashab kelganlar. Bu qabilalar o’zlarining tili, tashqi qiyofasi, madaniy saviyasi va tarixiy o’tmishlari jihatidan Mesopotamiyaning shimoli-g’arbida hamda Shimoliy Suriyada yashagan xurritlarga, Kavkazortidagi urartlarga va Dajlaning sharq tomonida yashagan tog’li qabilalarga juda yaqin bo’lgan. Biroq, bu subarey qabilalari miloddan avvalgi II ming yillik boshidayoq qisman, Akkadning semit qabilalaridan bo’lgan osurlar bilan aralashib ketganlar. Suriya-Mesopotamiya cho’llarida va Suriyaning ba’zi o’lkalarida joylashgan amoritlar osurlar va boshqa akkad qabilalaridan bir oz farq qilgan. Amoritlarning tili shimoli-g’arbiy semitlar tili guruhiga kirgan. So’ngra, Ossuriya davlati tashkil topgan davrda subarey qabilalari tamomila boshqa xalqlarga aralashib, qo’shilib ketgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Ossuriya hududida yashagn qadimgi xalqlar va ularning turmush tarzi, yashash hududi, aholisi va madaniyati bilan ko’plab arxeolog va tarixchilar tadqoqot o’tkazganlar. Masalan Austen Henry Layard (1817–1894) Britaniyalik arxeolog, diplomat va sayyoh. U Niniya va Kalhu (Nimrud) kabi qadimgi Ossuriya shaharlarida qazishmalar olib borgan. Uning topilmalari Ossuriya san’ati va madaniyati haqida ko’plab ma’lumotlar taqdim etadi. Paul-Emile Botta (1802–1870) – Fransuz diplomati va arxeologi. U Ossuriya shaharlaridan biri – Dur-Sharrukin (hozirgi Xorsabad)ni kashf etgan. U Ossuriya aholisining moddiy va ma’naviy yodgorliklari orqali Ossuriya tarixini tiklashga harakat qilib, shu borada tadqiqot o’tkazgan olimlardan biri. Bundan tashqari Ossuriya xalqlari haqida Georg Friedrich Grotefend (1775–1853) – Nemis filologi. U mixxat yozuvining dastlabki belgilarini o‘qib, Ossuriya yozushi va tili haqida muhim ma’lumotlar bergen. Shuningdek Ossuriya aholisining qadimgi mashg’ulotlari haqida ham batatsil ma’lumotlar taqdim etgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Ossuriyada osur tili hukmon til bo’lib, u semit tillari guruhiga kirgan. Arpachiyada, Tepa-Gavrada, Tel-Billada o’tkazilgan qazishlar eng qadimgi zamonlardan buyon shimoliy Mesopotamiyada yashagan subarey qabilalarining xo’jalik va butun madaniy taraqqiyot darajasini aniqlashga imkon beradi. Bu qabilalardan ba’zilari o’troq holga ko’chib, dehqonchilik bilan kun kechirgan. Ular Old Osiyo xalqlariga ma’lum bo’lgan don ekinlaridan emmer ekkanlar. Eng muhim hayvonlarni qo’lga o’rgatganlar. Turli hunarlar: kulolchilik, bo’z to’qish va metallurgiya paydo bo’lgan va rivojlanan boshlagan. Bu qadimgi qabilalardagi diniy e’tiqodlar haqida ham ba’zi bir ma’lumotlar bor. Subareylar tabiatdagi hodisalarni ilohiyashtirganlar va narigi dunyoga (oxiratga) ishonganlar. Qabrlar ochib tekshirilganda, murdalar g’ujanak qilib, yonbosh yotqizilgan holda, har xil narsalar: idishlar, tosh va suyakdan yasalgan qurol-yarog’lar bilan qo’shib ko’milganligi ma’lum bo’ldi. Bu esa yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Tahlil va natijalar: Subarey qabilalarning nomlari va ularning mamlakati Subartu nomi Shumer-Akkad va bobil yozuvlarida, jumladan, Marida topilgan juda muhim hujjatlarda uchraydi. Akkad podshosi Sargon qadimiyl o’sha vaqtida Subartu mamlakati bilan urush olib borganligi, shuningdek, Maridagi podsho saroyi xarobalaridan topilgan hujjatlarga qaraganda, Bobil podshosi Xammurapi shimoliy tog’larda yashovchi ana shu subarey qabilalari bilan urish qilgan paytida Mari podshosi Zimrilim bilan harbiy ittifoq tuzishga majbur bo’lganligi ham manbalarda saqlanib qolgan. Subareylar yashayotgan hudud juda strategik joyda joylashgan

bo'lib, boshqa mamlakatlar bu hududga bosib o'tkazishga harakat qilishgan. Masalan, Zimrilim shimoliy Mesopotamiya hududlaridan doimiy soliq va ibodatxonalar uchun qurbanlik olib turgan. Bu orqali Zimrilim o'zini „Yuqori mamlakatlar podshosi” unvoniga sazovor bo'lgan. Aftidan Bobil ham Mari ham Subartu mamlakati juda qadimda juda mustahkam a'lqlar qilishga harakat qilgan. Bunga sabablar ham yetarlicha albatta. Bir qancha manbalar subareylarning juda katta hududda yashaganligini va ularning madaniyati juda yuksak bo'lganligini ko'rsatadi. Dajla daryosining shimoliy qismidan to Nippurgacha cho'zilgan keng territoriyada subareylarning nomlari yozilgan hujjatlar topilgan edi. Dajlaning sharq tomonida, Kerkuk yaqinida ham subareylarning nomlari nomlari yozilgan Akkad yozuvlari topilgan. Bu yerdag'i qazishlar natijasida subareylar ta'siri g'arbga, to Suriyagacha borib yetgan. Eng qadimgi Ossur podsholari mamlakatning yerli aholisi bo'lgan subareylar bilan juda yaqin aloqada bo'lishgan. Ba'zi podsholar, chunonchi, Ushpiya va Kikiya o'zlariga subarey nomlarini qo'yganlar.

Eng qadimgi Ossuriyada Mitanniliklarning ham bir qator ta'siri bo'lganligi sezilib turadi. Masalan, Dajla daryosi bo'yidagi Samarra shahrida mitanniliklar ismi bilan o'zini atagan podsho Arisenning mis lavhachasi topolgan edi. Arisen miloddan avvalgi III ming yillikda Urkish va Navar viloyatlarini idora qilgan hukmdor edi. Ossuriyaga qo'shni xalqlar ta'siri ham yetarlicha bo'lganligi ba'zi tarixiy manbalarda qayt etilgan. Shumerning kuchli madaniy ta'siri qadimgi zamonalardan boshlab Ossuriyaga kirib borgan. Ossuriya yozuvlari orasida uchragan birdan-bir yirik hujjat „ossuriya qonunlari” deb ataladigan qonunlar, yoki to'g'riroq qilib aytganda, sud ishlariga oid hujjatlardir. Bu to'plamning 79 moddasidan 51 tasi oila huquqiga doir bo'lib, u miloddan avvalgi II ming yillikning taxminan o'ttalarida (miloddan avvalgi XV-XIII asrlarda) tuzilgan. Bu hujjatlar to'plami Ossuriyaning qadimiy poytaxti Ashshur xarobalaridan topilgan. Bu qonunlar, Ossuriya tarixining muhim manbasi bo'lib, qadimgi osurlarning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumini haqida to'liqroq ma'lumot beradi. Podsho yozuvlari, yilnomalar, amaldorlarning ro'yxatlari, tarixiy-diplomatik hujjatlar ham bu qonunlar to'plamida qisman tilga olingan. Bundan tashqari Ossuriya podshosi Ashshurbanipal kutubxonasidan topilgan juda ko'p va xilma-xil yozuvlar Ossuriyada madaniy taraqqiyot ancha yuqori darajada bo'lganligidan guvohlik beradi.

Xulosa: Qadimgi Ossuriya xalqlari Yaqin Sharq tarixida muhim o'rinni egallagan va o'z davrining eng qudratli sivilizatsiyalaridan biri sifatida tanilgan. Ular ilg'or harbiy strategiya, markazlashgan boshqaruv tizimi va rivojlangan huquqiy tamoyillari bilan ajralib turgan. Ossuriya imperiyasi o'zining kengayish siyosati natijasida Mesopotamiya, Suriya, Kichik Osiyo va Misrgacha bo'lgan hududlarga ta'sir o'tkazgan. Ossuriya xalqlari qattiq markazlashgan davlat tuzilishiga ega bo'lib, hukmdorlar o'z kuchini mustahkamlash uchun murakkab byurokratik tizimdan foydalangan. Ularning harbiy salohiyati katta bo'lib, temir qurollar, qamal uskunalari va otliq qo'shinlardan samarali foydalanishgan. Bu esa ularni davrining eng qudratli davlatlaridan biriga aylantirgan. Bundan tashqari, Ossuriyaliklar san'at va me'morchilik sohasida ham katta yutuqlarga erishgan. Ular tomonidan barpo etilgan Nineviya va Nimrud shaharlariagi saroylar, ibodatxonalar va haykaltaroshlik asarlari bugungi kunda ham qadimiy madaniyat yodgorliklari sifatida qadrlanadi. Ayniqsa, mixxat yozushi va kutubxonalari orqali ular madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazgan. Shuningdek,

Ossuriya xalqlari iqtisodiy va savdo sohasida ham katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Ular Yaqin Sharqning turli mintaqalari bilan faol savdo olib borgan va boy tabiiy resurslardan samarali foydalangan. Miloddan avvalgi VII asrda Ossuriya imperiyasi ichki nizolar, isyonlar va tashqi dushmanlarning bosqinchiligi tufayli inqirozga uchrab, qulaydi. Biroq uning merosi keyingi sivilizatsiyalarga, jumladan, Bobil, Fors va Yunon madaniyatlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda Ossuriya tarixini o'rghanish orqali insoniyatning ilk davlat qurilishi, harbiy san'ati va madaniy yutuqlari haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avdiyev. V.A Qadimgi sharq tarixi. Toshkent: «O'rta va oliv mакtab» nashriyoti. 1964. 494. B.
2. Кузишин В.И. История древнего востока. Москва: «Высшая школа» 1988. С. 136.
3. Kabirov A. Qadimgi sharq tarixi. Toshkent:- «Tafakkur» nashriyoti, 2016. 150. B.
4. Rajabov R. Jahon tarixi. :Toshkent- «Yangi asr» nashriyoti, 2015. 134. B.
5. Тураев Б. А. История Древнего Востока. — Москва: Харвест, 2004. — С. 745.
6. Алёшин Л. И. Библиотековедение. История библиотек и их современное состояние / Л. И. Алёшин. – М.: ФОРУМ, ИНФРА-М, 2016. –С. 239.
7. Рубанова Т. Д. История библиотечного дела: Древний мир – Средние века – Эпоха Просвещения / Т. Д. Рубанова. – Челябинск, ЧГАКИ, 200 – С. 111.
8. Landsberger B. Three Essays on the Sumerians. Monographs on the Ancient Near East. N 1-2. Los Angeles, 1974. P. 233.
9. Дьяконов И. М. (ред.). История Древнего Востока: зарождение древнейших классовых обществ и первые очаги рабовладельческой цивилизации. Ч. 1. Месопотамия. М., 1983. С. 320.
10. Grayson, Albert Kirk. The chronology of the reign of Ashurbanipal // Zeitschrift für Assyriologie und Vorderasiatische Archäologie. — 1980. — Vol. 70, no. 2. — P. 244.